

**O‘ZBEK IBORALARINING IZOHLI ELEKTRON LUG‘ATINI YARATISH
MUAMMOLARI****Esonturdiyeva Dilnoza Yusupovna***Termiz davlat universiteti**Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi*

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi iboralar, ularning o‘rganilishi hamda bu borada qilinmagan ishlar va dolzarb muammolar haqida, xususan, iboralarning elektron lug‘atini tuzish, lug‘atning tarkibiy qismlarini shakllantirish va boyitish masalalari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Iboralar, frazemalar, lingvistik baza, elektron lug‘at, dastur.*

O‘zbek tili iboralarga juda boy til hisoblanadi. Iboralarning ko‘pligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqimizning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ham ko‘rsatib turadi. Iboralar — tilimizning lug‘at tarkibining ma’lum qismini tashkil etuvchi birliklardir. Ular ikki va undan ortiq so‘zning ko‘chgan ma'nolari asosida tarkib topgan lug‘aviy birlik bo‘lib xuddi so‘z kabi lug‘aviy ma'noni anglatadi. Ular frazema–frazeologik birlik sifatida tilshunoslikning frazeologiya bo‘limida o‘rganiladi.

Tilshunoslikning iboralar tizimini o‘rganuvchi frazeologiya bo‘limi boshqa bo‘limlarga nisbatan yangi bo‘limdir. U XX asrning 50-yillaridan mustaqil bo‘lim sifatida ajralib chiqdi. Frazeologiyaning tilshunoslikning alohida yo‘nalish sifatida shakllanishi rus tilshunosi V.V.Vinogradov nomi bilan bog‘liq.

O‘zbek frazeologiyasining shakllanishi Sh.Rahmatullayev, M.Husainov, Y.D.Pinxasovlarning nomlari bilan bog‘liq.

O‘zbek tilshunosligida bu sohada dastlabki ma'lumotlarni professor Sh.Rahmatullayev e'lon qilgan. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya bo‘limining ilmiy asosda chuqur o‘rganilishi va takomillashuvida olimning xizmatlari beqiyos. U, shubhasiz, o‘zbek frazeologiyasi maktabiga asos soldi. U yaratgan "Nutqimiz ko'rki", "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi", "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" va shunga o'xshash juda ko'plab asarlar yozdi. Bu asarlar o'zbek tilshunosligi uchun juda qimmatli manbaalar hisoblanadi. Sh. Rahmatullayev o‘zining qator ilmiy tadqiqotlarida iboralarning til hodisalari bilan o‘xshash va farqli xususiyatlari hamda grammatik tabiatini o‘rgandi, ilk bor o‘zbek frazemalarining izohli lug‘atini tuzdi. Bu lug‘atda iboralarning ma'nosini izohlab bergan. Shuningdek, Sh.Almamatova “O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili ” mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan. Bu dissertatsiyada frazemalarning komponent tahlili, xususan, frazemalarning ifodaviy va mazmun jihatidan shakllantirishdagi komponentlarning o‘rni, frazemalarning o‘z va

paradigmatik shakli, komponentlarning tarkibi, variantlanishi kabi masalalarni tatqiq etishni asosiy maqsad qilgan. O'zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvda B.Yo'ldoshev, Abdumurod Mamatov, Abdug'ofur Mamatovlarning xizmatlari katta bo'ldi. B.Yo'ldoshev iboralarning konnotativ ma'nolari, badiiy tasvir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini yoritib berdi. Abdumurod Mamatov esa frazeologik norma muammosini ko'tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o'rtasidagi munosabatni ko'rsatib berdi.

Hozirgi kunda o'zbek frazeologiyasi masalalari M.E.Umarxo'jayev, X.Dadaboyev, I.X.Sadikova, S.X.Nurmatova, O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Ahmedov, H.V.Mirzaxmedova, S.T.Mustafayevalarning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan.

Sh.Sodiqova "Turg'un birikmalarning deformatsiya va modernizatsiya qilinishi" mavzusidagi maqolasida iboralarning uslubiy imkoniyatlari, iboralarning so'zlashuv va badiiy uslubda o'ziga xos qo'llanish qonuniyatlari, badiiy uslubga xos iboralarning zamon talabiga mos ravishda deformatsiya va modernizatsiya qilinishi masalalariga to'xtalib o'tgan. Shuningdek, M.Hamroqulova iboralarning so'z va so'z birikmalaridan farqi, nafaol iboralar, maktab darsligida iboralarning o'qitish metodikasiga batafsil to'xtalgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ayonki, bugungi kunga qadar o'zbek tilshunosligida iboralar va ularning tadqiqiga doir ko'plab izlanish olib borilgan. Shunga qaramay hali bu borada qilinmagan ishlar, yechilmagan muammolar va o'z tadqiqotchilarini kutib yotgan dolzarb masalalar talaygina. Xususan, quyida ulardan bir nechtasiga to'xtalamiz:

1. "O'zbek frazemalarining izohli lug'ati" ilk bor 1978-yilda professor Sh.Rahmatullayev tomonidan yaratilgan va bu lug'at, afsuski, eng so'nggisi ham bo'lib qolmoqda. Uning yangilangan, to'ldirilgan nashrini tayyorlash va chop etish masalasi shu kungacha o'ylab ko'rilmadi.

2. Bugungi globallashuv asri, dunyo tilshunoslari bor imkoniyatlarini o'z tillarini axborot tiliga aylantirish, kompyuterga olib kirish, ko'plab afzalliklarga ega bo'lgan, foydalanish uchun qulay elektron dasturlar yaratishga sarflayotgan bir davrda o'zbek tilshunosligida iboralarning elektron lug'atini yaratish muammosi e'tibordan chetda qolmoqa.

3. Quvonarlisi, ayrim jonkuyar, vatanparvar dasturchi hamyurtlarimiz tomonidan shunday lug'at yaratilibdi. Ammo, tabiiyki, bu dasturning lingvistik bazasi chuqur bilimga ega tilshunoslardan tuzib berilmagani bois ko'plab kamchiliklardan xoli emas:

- a) lug'at juda sodda bo'lib, yetarlicha imkoniyatlarga ega emas;
- b) lingvistik bazasi torroq, shu bois tildagi barcha iboralar qamrab olinmagan;
- d) lug'atda berilgan iboralar kengroq yoritilmagan, bir so'z yo so'z birikmalari bilan izohlangan xolos;
- e) iboraning ishlatilishiga doir misollar kiritilmagan.

4. Shuningdek tilshunosligimizning elektron lugʻatlar yaratish masalasida ortda qolayotgani bugun oʻzbek tilini oʻrganishga ishtiyoq bildirayotgan xorijlik til oʻrganuvchilari hamda tarjimonlar uchun qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli mukammal ishlangan "Oʻzbek iboralarining izohli elektron lugʻati"ni yaratish tilshunosligimizdagi dolzarb muammolardan biridir. Yaratilajak lugʻat quyidagicha boʻlishi lozim:

1) dastur tili dasturning muvaffaqiyatli ommalashishi uchun oʻzbek tilidan tashqari kamida 3 ta xorijiy tilni oʻz ichiga olgan boʻlishi;

2) lugʻat alifbo tartibida taxminan quyidagicha tuzilishi mumkin:

[Ibora] M: ***Koʻngli joyiga tushmoq.***

Lugʻat maqolachasi: Koʻngli joyiga tushmoq– feʼl (iboranig qaysi turkumga raalluqli soʻzga teng kelishi) Kimning? (shaxsga nisbatan qoʻlanilishini ifodalaydi) Xotirjam boʻlmoq, tinchlanmoq, taskin topmoq.

Variantlari: ***koʻngli oʻrniga tushmoq, koʻngil joyiga tushmoq.***

Oʻxshashi: ***koʻnglini joyiga tushirmoq.***

Antonimi: ***yuragiga gʻulgʻula tushmoq.***

(agar mavjud boʻlsa omonimlari ham keltiriladi)

Qoʻllanilishiga doir misollar: ***Gʻulomjon.. hali qoʻshnisi terim boshlamaganini koʻrib, koʻngli ancha joyiga tushdi.*** M. Ismoilov, Fargʻona t. o. ***...kuniga bir bozor aylanib kelmasa, koʻngli joyiga tushmas edi.*** A.Muxtor. Xayri.

3) Foydalanuvchilarning bilimlarini sinab koʻrishlari hamda koʻngilochar mashgʻulot sifatida kundalik muloqotda eng faol iboralar va ularning mazmuniga doir qiziqarli testlar, boshqotirmalar va shunga oʻxshash oʻyinlar qoʻshish.

4) "Kun iborasi" sifatida foydalanuvchi tasdiqlagan taqdirda har kuni bittadan yangi ibora va uning mazmunini oʻrganishni taklif etuvchi eslatma xizmati.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida aytilgani kabi lugʻatlarning yaratilishi tilshunoslar, oʻqituvchi, talaba va oʻquvchilar, nashriyot xodimlari, jurnalist va boshlovchilar, yozuvchi va shoirlar, tarjima faoliyati bilan shugʻullanuvchi kishilar, shuningdek oʻzbek tilini oʻrgatuvchi va oʻrganuvchilari uchun juda ham foydali, qulay boʻlib, koʻplab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ularning nutqini goʻzallashtiruvchi rang-barang ifodalar bilan boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1978.
2. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. – Toshkent, 1992.
3. Mengliyev B., Xoliyorov Oʻ. Oʻzbek tilidan universal qoʻllanma. – Toshkent, Akademnashr, 2011.

4. To‘xliyev B., Yusupova Sh., Rayimberdiyeva Z. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslarida yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi. – Toshkent, 2010.
5. Almatova Sh. O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili: Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008.
6. <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.iboralar.lugati>